

TUYG'ULARI ROST SHOIR

*Nurulloyeva Nazokat To'rayevna**Navoiy viloyati Uchquduq tumani**18-sonli maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqola o'quvchilarga adabiyot darslarida Muhammad Yusuf she'rilarini tahlil qilishda, nasriy bayon qilishda, ma'nosini tushinishda qo'llanma bo'lib, Muhammad Yusuf she'rilarini mazmuniy jihatdan ochib bergen.

Kalit so'zlar: tashbeh, tajnis, she'riyat.

She'riyatning qat'iy talab-qoidalari bor, bu ayon. Qo'liga qalam ushlagan odam bularga rioya etishi shart. Biroq...Hamma gap ana shu "biroq"da. Tuyg'u rost, samimiyo bo'lmasa, izhor ko'ngildan chiqmasa, har qancha qoidalari bo'lmasin, bunday bitik ko'ngillarga yetib bormaydi. Bunday she'rning uzoq yashashi amrimahol. O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf she'riyatining bugun ham o'quvchilar qalbu shuurida aks-sado berayotgani sababi aynan rostgo'ylik va samimiyat ekanini ta'kidlash kerak. Shoир ta'biricha, she'riyat bu-qadim buyuk so'qmoq. Shunday so'qmoqki, undan yurmoq har kimning ham haddi emas. Shu bois u kiyik so'qmoqqa mengzaydi. Xo'sh, she'riyatni yana ta'riflamoq mumkin?

Shirin azob ekan, jonni

Yoqmoq ekan.

Bir qo'lda gul, bir qo'lingda

Chaqmoq ekan.

She'riyat bu-obrazli tafakkur demakdir. Chinakam shoир obrazni shu darajada aniq-tiniq tasvirlaydiki, bu obraz o'quvchi ko'z o'ngida yorqin manzara hosil qiladi; uning tuyg'ularini, shuurini o'ziga rom etib qo'yadi. Muhammad Yusuf she'riyatida ana shunday misralar talaygina. Yuqorida she'rning mana bu poetik xulosasi ham fikrimizni tasdiqlaydi:

Ko'nglim sezar-bu so'qmoqdan
O'tolmayman.

Qaytib ketay desam, qaytib
Ketolmayman.

Chaqirtoshlar tovonimdan
Tishlab olgan.

Qo'llarimdan kiyikchalar
Ushlab olgan.

Tovoni chqirtoshlarga botib, qo‘llaridan kiyikchalar ushlab olgan shoir obrazichindan ham nozik topilma. Obraz shu darajada jozibaliki, ko‘ngilda hayrat uyg‘otadi, tasavvurda muhrlanib qoladi.

Boshqa bir she’rida shoir she’riyatni bevafo sanamga qiyoslaydi. U bois orttirgan zahmatlarinibu dunyoda orttirgan zari deb biladi. Uxlamay qon yutgan tunlari uchun rahmatlari bor ekanini izhor etadi. U - she’riyatning chin oshig‘i. Shoirning xayoli- mahbuba ostonasidagi it. Uning uchun she’riyat- qo‘l yetmas hilol. Tanasi yerda bo‘lsa ham, ruhi ko‘kda ekani sababi shunda. Ana shu so‘nmas ishq, ana shu chinakam oshiqlik shoir nazmiga nur bag‘ishlab turadi.

Vatan muhabbatı- Muhammad Yusuf she’riyatining bosh mavzusi. Ijodkor ona Vatanni “yorug“ jahonom”, “taxti Sulaymonim”, “yagonam”, “topingan koshonam” deya vasf etadi. Shoir ko‘nglining mana bu izhori esa tashbehning betakrorligi, ifodaning tiniqligi bilan ko‘ngilning tub-tubiga o‘rnashadi:

Oftobdan ham o‘zing mehri

Ilig‘imsan, Vatanim.

Professor Qozoqboy Yo‘ldosh:”Ko‘pincha Vatan haqida she’r bitgan ijodkorlar qandaydir o‘zidan tashqaridagi bir mavjudlik haqida yozayotgandek qalam surishadi. Shuning uchun ham vataniy ash’orda joziba kamroq, fikr kuchliroq bo‘ladi. Muhammad Yusufning vatani uning naq yuragida edi. U Vatan haqida ichdan kuyunib, qizg‘anish va iztirob bilan yozardi”, deya e’tirof etadi. Darhaqiqat, shoirning Vatan mavzusidagi she’rlarini befarq o‘qish mahol. Sababi, u ona zaminni mana shu tarzda sevadi:

Vatan-
Yuragimning
Olampanoji,
Bu dunyo-
Bukri bir
Jiydangning shoxi!...
Ko‘zim Yoshi bilan sug‘orib gohi
Ko‘ksimda o‘stirgan
Gulday sevaman.

Dunyolar ichra dunyoga mengzarli ona Vatan va murodi oq yaktagi yanglig‘ oppoq ona xalq timsollari shoir she’rlarida ajib uyg‘unlik kasb etadi, baland pafos bilan kuylandi. Ijodkor o‘zi mansub millat bolalarining boshida do‘ppi, belida belbog‘ ko‘rishni istaydi. Tildoshlarining do‘ppi kiymay qo‘yganidan kuyinish hissini “Boshga loyiq do‘ppi yo‘qdir yo, Bosh qolmadni do‘ppiga loyiq”, deya ohorli umumlashma orqali izhor etadi. Milliy g‘urur timsoli bo‘lgan belbog‘ini tashlaganlardan “Belbog‘ingiz qani belingizdag!” deya o‘rtanadi. Har ikki timsol-do‘ppi va belbog‘ni

Muhammad Yusuf shunchaki bir buyum sifatida emas, milliy o‘zlik va oriyat ramzi o‘laroq tasvirlaydi.

O‘tgan asrning 70-yillarida O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripovning “Qachon xalq bo‘lasan, sen, ey olomon” degan misrasi el qalbida aks-sado bergani, juda ko‘p ijodkorlarga ilhom bag‘ishlagani ayon. Muhammad Yusufning “Xalq bo‘l, elim” she’ri mohiyatan shunga yaqin. U qadim yurtiga qadim navolari qaytmog‘ini istaydi, buyuk Sohibqiron beshigini tebratgan, bolasi yulduzlarga narvon qo‘ygan elining bir mayizni qirq bo‘lgan bir tanu jon kunlarga yana yetishmog‘ini orzu qiladi. Tuyg‘uning tozaligi, ifodaning samimiyligi she’ming ta’sir kuchini, ayniqsa, oshirgan:

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,
Quqlar bosib qurimasin daryolarim.
Alpomishga alla aytgan momolarim
Ruhini shod etay desang -xalq bo‘l, elim!

U elining xalq bo‘lishini istadi, o‘zbekni mahalliychilik qiyaratganidan iztirob chekadi, daholarga boy millatning ular qadriga har doim ham yetavermaganidan kuyindi. Yaktagineg yenglaridan ter yugurgan, dalasini bolasidan ham ustun qo‘ygan, bir qo‘lini silamoqqa ikkinchi qo‘lining fursati yo‘q bobo-dehqonga bor mehrini nisor etdi:

Ish degani faqat senga
Chiqqanmi yo, ey mo‘min?
Qora mehnat yo‘rgagingdan
Yuqqanmi yo, ey mo‘min?
Onang seni paxtazorda
Tuqqanmi yo, ey mo‘min?
Qadoqko‘l-tovonim mening,
Bobodehqonim mening.

Muhammad Yusuf she’riyatining obraz va timsollar olami o‘rganilsa, qiziq bir hol kuzatiladi. Shoir qizg‘aldoq, binafsha, kapalak timsollariga eng ko‘p murojaat qilgan va bu tasodifiy emas. E’tibor berilsa, ular barchasi go‘zallikning betakror namunasi bo‘lishi barobarida, hammasi birday qisqa umr ko‘radi. Nima uchun shoir bu timsollarni xush ko‘rgan? Nega aynan ko‘proq ularni qalamga olgan?

“Qizg‘aldoq” she’ri ijodkor nazmida obrazli tafakkurning o‘ziga xos namunasi ekani bilan alohida ajralib turadi. She’rda shoir qalbidagi hech kimga aytilmaydigan iztirob izhorini kuzatish mumkin. Bu iztirob beixtiyor o‘quvchi qalbiga ham ko‘chadi:

Qizg‘aldog‘im, qirdan bo‘lak koshonang yo‘q,
Kokil yoysang, yerdan bo‘lak toshoynang yo‘q,
O‘ksib-o‘ksib turganingda o‘zim borib,
Peshonangdan o‘pay desam, peshonang yo‘q.

Qizg‘aldoqning bosh egib, kelinchakday sollanishi, jayron o‘tgan so‘qmoqlarga yosh to‘kishi- tashxis san’atining yorqin namunasi. Bu gulning qizil yuzi shoirning qon diligiga tashbeh etilishi, “Meningdek sen g‘aribning ham parvonang yo‘q” deya muallif ruhiyatining, lirik kayfiyatining ifodalanishi she’rning badiiy quvvatini oshirgan.

“Binafsha” she’rida shoir “Asl gulning hamisha umri qisqa bo‘ladi” tarzidagi badiiy umumlashmani beradi. Muallif nazdida, binafshaning yuragi mudom qon, ichi to‘la faryod. Vaholanki, bahor usiz bahor bo‘lmaydi. Zamin usiz huvillagan kelinsiz hovliga mengzaydi. Baraka ham, Xizr ham u bor joyda muhayyo. Shu bois binafsha go‘zal dostoniga qiylas etgulikdir. Juda qisqa umr ko‘radigan birgina gul timsolida shuncha hikmatni mushohada etish uchun ijodkor nazari zarur, shoir bo‘lib tug‘ilish kerak. Muhammad Yusuf ana shunday shoir edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zamon. Mezon. She’riyat/N.Jabborov.-Toshkent:G‘afur G‘ulom, 2015.-304b.
2. Ko‘nglimdagি daryo/A.Sulaymon.-Toshkent:Muharrir, 2012
3. Hayot falasafasi va shoir muhabbati/Farhod Hamroyev.-Toshkent:Sharq, 2008, 394-408 betlar
4. Ruhim sen vujudning g‘amini yema.-Abdulla Oripov bilan suhbat. “Fidokor” gazetasi 1999-yil 27-may soni